

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”



Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti rektori

2024-yil

**IKKINCHI VA UNDAAN KEYINGI OLIY TA‘LIM
BO‘YICHA BAKALAVRIAT TA‘LIM YO‘NALISHLARI
UCHUN O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
FANIDAN IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta‘lim yo‘nalishlarga mos fan bo‘yicha)**

Toshkent – 2024

Tuzuvchilar:

X.U.Boltaboyev - O‘zMU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası mudiri, f.f.d.

N.Sh.Inag‘omova - O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

N.G‘.Alavutdinova - O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrası k.o‘q., p.f.n.

O.Hamroeva - Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori v.b., f.f.d.

Mazkur dastur Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘quv-uslubiy Kengashining 2024-yil _____dagi _____-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

KIRISH

Mazkur dastur ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kiruvchi abituriyentlar uchun maktab o'quv dasturiga mos tarzda tuzilgan.

O'zbek tilining grammatik xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari va o'zbek adabiyotining asosiy tamoyillari, muallif va asarlari umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi darsliklarida yoritilgan.

Til va jamiyat, fonetika, orfoepiya, orfografiya, grafika, leksikologiya, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, stilistika kabi bo'limlar hamda adabiyot, so'z san'ati, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, xalq og'zaki ijodi, janrlari, uyg'onish davri adabiyoti, yangi davr o'zbek adabiyoti, ma'rifatparvarlik adabiyoti, jadid adabiyoti, sho'rolar davri adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti bo'yicha berilgan mavzular o'quvchi tafakkurini o'stirishda, dunyoqarashini belgilashda ahamiyatlidir.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu dastur bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, til va adabiyot turkumidagi alohida fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko'zda tutadi.

Bunda abituriyentlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish; til va adabiyot masalalarini talqin qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda o'zbek tili grammatikasi asoslarini o'zlashtirish, adabiyot fani doirasidagi mavzularni, yozuvchi hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni o'rganish, badiiy san'at turlarini bilish, tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish vazifalari ko'zda tutilgan.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

“O'zbek tili va adabiyoti” imtihon dasturiga ko'ra o'zbek tili va adabiyoti fanlarining har biriga talablar qo'yiladi:

O'zbek tili fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

- adabiy tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik me'yorlari;
- orfografiyaga, orfoepiyaning nazariy masalalari asosida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini;
- lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi qoidalarini;
- tilshunoslikning har bir bo'limlari bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim dasturlariga yaqinlashtirilgan holdagi ma'lumotlarni;
- grammatik tahlil qilish ko'nikmasini bilishi kerak.

O'zbek adabiyoti bo'yicha abituriyent:

- o'zbek adabiyotining asosiy nazariy tamoyillari;
- adabiyot tarixida sezilarli iz qoldirgan mashhur adiblar hayoti;
- milliy adabiyot tarixidan o'rin olgan asarlar va ularning tahlili;
- zamonaviy adabiyotga tegishli ayrim ijodkorlar faoliyatidan xabardor bo'lishlari kerak.

Fanning mazmuni

O‘zbek tili

Til va jamiyat. Tilning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Tilning aloqamunosabat vositasi sifatidagi ahamiyati. Dunyo tillari. Til oilalari.

Fonetika. Nutq tovushlari va ularning tasnifi. “Fonema”, “urg‘u”, “bo‘g‘in”, “takt” tushunchalari. Fonetik o‘zgarishlar: tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi.

Orfoepiya. Talaffuz me‘yorlari. Orfoepiya me‘yorlari asosidagi tovush o‘zgarishlari: assimilyasiya, dissimilyasiya, metateza.

Orfografiya. Imlo qoidalari. Fonetik yozuv, morfologik yozuv, shakliy yozuv qoidalari.

Grafika. Tovush va harf munosabati. Yozuv tarixi. Lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi.

Leksikologiya. So‘z va ma‘no. Lug‘aviy ma‘no va grammatik ma‘no. O‘z ma‘no va ko‘chma ma‘no. Bir ma‘noli (monosemantik) va ko‘p ma‘noli (polisemantik) so‘zlar. So‘z va leksema. So‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari: shakldoshlik, ma‘nodoshlik, zid ma‘nolilik, paronimlik hodisalari.

Tarixiylik jihatdan o‘zbek tili leksikasi. Tarixiy so‘zlar, arxaizmlar, neologizmlar.

O‘zbek tilining lug‘at boyligi. Qo‘llanish doirasiga ko‘ra o‘zbek tili leksikasi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi o‘rni. Hududiy chegaralangan so‘zlar: lahja, sheva tushunchalari. Ijtimoiy chegaralangan so‘zlar: argo va jargonlar. Termin (atama)lar. Terminologiya (atamashunoslik).

Lug‘at boyligining ortib borish usullari: ichki manba va tashqi manba. Olinma so‘zlar.

Barqaror birikmalar: maqol-matallar, iboralar, hikmatli so‘zlar (aforizmlar).

Leksikografiya. Lug‘at va uning turlari. Ensiklopedik lug‘atlar. Filologik lug‘atlar.

Morfemika. So‘z tarkibi. O‘zak morfema va affiksial morfema. Affiksial morfema (qo‘shimchalar)ning vazifasiga ko‘ra turlari: so‘z yasovchi va shakl yasovchi (lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi) qo‘shimchalar.

Grammatika: morfologiya va sintaksis. Morfologiya – so‘z turkumlari, grammatik shakl, grammatik ma‘no haqidagi bo‘lim sifatida.

So‘z turkumlari. To‘plam va tasnif. Mustaqil so‘z turkumlari. Ot va uning morfologik xususiyatlari. Otlarning lug‘aviy shakllari: ko‘plik, kichraytirish-erkalash shakllari. Otlarning munosabat shakllari: kelishik va egalik qo‘shimchalari.

Sifat. Sifat darajalari. Asliy sifat va nisbiy sifat. Tub va yasama sifatlar.

Son. Miqdor son va tartib son. Hisob (o‘lchov) so‘zlari.

Olmosh. Olmoshning ma‘no turlari. Kishilik olmoshlari. Ko‘rsatish olmoshlari. O‘zlik olmoshi. So‘roq olmoshlari. Belgilash-jamlash olmoshlari. Bo‘lishsizlik olmoshlari. Gumon olmoshlari.

Ismlar. So‘zlarni turkumlarga ajratish tarixi. Ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, taqlid so‘zlarining ismlilik xususiyatlari. Ismlarning munosabat shakllari.

Fe‘l. Fe‘llarning ma‘no turlari: harakat va holat fe‘llari. Tuslanish. Fe‘llarda zamon, mayl, bo‘lishli-bo‘lishsizlik tushunchalarining ifodalanishi. O‘timli va o‘timsiz fe‘llar. Fe‘l nisbatlari. Ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi (harakat tarzi shakllari).

Ravish. Ravishning ma'no turlari. Ravishlarda kelishik va egalik shakllarining yaxlitlanib qolishi.

Yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Undov so'zlar. Taqlid so'zlar. Modal so'zlar.

Sintaksis. So'z birikmasi. So'z birikmasining bog'lanish usullari: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. So'z birikmasi turlari: otli birikma va fe'lli birikma.

Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap.

Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra tasnifi: his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gap.

Gapning modallikka (voqelikka munosabatiga) ko'ra tasnifi: tasdiq gap va inkor gap.

Gapning tuzilishiga ko'ra tasnifi: sodda gap va qo'shma gap.

Sodda gap sintaksisi. Gap bo'laklari: gapning bosh bo'laklari. Kesim: ot-kesim va fe'l-kesim. Murakkab ot-kesim. Bog'lama. Murakkab ot-kesim va ega o'rtasida tirening ishlatilishi. Ega. Ega ishtirokiga ko'ra sodda gap tasnifi: egasi mavjud gaplar va egasi mavjud bo'lmagan gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasi (shaxsi) topilmas gaplar. So'z-gap. Atov gap.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gapning uyushiq bo'laklari: uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi. Uyushmagan aniqlovchi.

Gapning ajratilgan bo'laklari. Ajratilgan kesim, ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gap bo'laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan bo'laklar: kiritma, kiritma gap, undalma.

Sodda yig'iq gap. Sodda yoyiq gap. To'liq gap va to'liqsiz gap. Gap bo'laklari tartibi. Inversiya.

Qo'shma gap sintaksisi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar.

Qo'shma gapning tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar xarakteriga ko'ra turlari: bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap. Havola bo'lakli gap. Qo'shma gapning sodda gap bilan ma'nodoshligi.

Uslubiyat. Nutq uslublari: so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, ommabop uslub, badiiy uslub.

Punktuatsiya. Tinish belgilarining qo'llanishi.

O'zbek adabiyoti

Qadimgi adabiy yodgorliklar. "Avesto" adabiy manba sifatida. O'rxun-Enasoy obidalari. "Devonu lug'at-t-turk"dagi adabiy namunalar. "Qutadg'u bilig" dostonining obrazlar tizimi. "Hibatu-l-haqoyiq" asarining ma'rifiy asoslari. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va hikmat janri taraqqiyoti.

Temuriylar davri adabiyoti. Temuriylar davri adabiyotining taraqqiyot omillari. Gadoiy, Atoyi, Lutfiy va Sakkokiy she'riyati.

Navoiy tarjimayi holining adabiy manbalari. "Xazoyinu-l-maoniy"ning tarkibi. Navoiy ijodida lirik janrlar. "Xamsa"chilik an'analari va Navoiy "Xamsa"si.

XVI-XIX asrlar adabiyoti. Xonliklar davri adabiyotining xususiyatlari. Bobur badiiy merosi, “Boburnoma”. Ilmiy merosi. Qul Ubaydiy ijodi. Mashrab shariyati. “Mabdai nur” muallifligi masalasi. Huvaydo gʻazallari poetikasi. Amir Umarxon adabiy muhiti ijodkorlari. Nodira ijodi. Ogahiy sheʼriyatining obrazlar tizimi. Muqimiy va Furqat ijodi. Avaz Oʻtar asarlari.

Yangi oʻzbek (milliy uygʻonish) adabiyoti. Jadid tushunchasi, maqsad, vazifalari, oʻrganilishi, muammolari. Milliy matbuot. Milliy teatr, badiiy adabiyot, maʼrifiy-ijtimoiy sheʼriyat (A.Avloniy, Hamza, Soʻfizoda, A.Qodiriy) va publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Hoji Muin).

Yangi oʻzbek adabiyoti. Shoʻro davri adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari. Gʻ.Gʻulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Zulfiya, M.Shayxzoda, Mirtemir kabi shoir va yozuvchilar shu davr adabiyotining namoyandalari sifatida.

Istiqlol davri oʻzbek adabiyoti. Mustaqillik tuygʻusi oʻzbek adabiyotida milliy oʻzlikni anglashga tashnalik sifatida namoyon boʻlganligi. Istiqlol davri oʻzbek adabiyotiga Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzaev, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Erkin Aʼzam, Xurshid Doʻstmuhammad, Nazar Eshonqul va boshqa ijodkorlar qoʻshgan hissalarini xususida. Ular ijodidagi oʻziga xos xususiyatlar va yetakchi tamoyillar.

IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH M E Z O N I

Imtihon ballik baholash tizimida baholanadi.

Kirish imtihonlari test sinovlari shaklida oʻtkaziladi va 30 tadan test savollari kiritiladi. Agar fanlar majmuasida ushbu fan asosiy 1-fan sifatida kiritilgan boʻlsa, har bir toʻgʻri javob uchun 3,1 balldan, maksimal 93 ballni, agar ushbu fan 2-fan sifatida kiritilgan boʻlsa har bir toʻgʻri javob uchun 2,1 balldan, maksimal 63 ballni tashkil etadi.

2024-2025 oʻquv yili uchun test sinovlari shaklida oʻtkaziladigan imtihonlar kompʻyuterda maxsus dasturlar orqali amalga oshiriladi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtihon komissiyasi faoliyati 2024-2025 oʻquv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Biologiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi taʼlim yoʻnalishlar boʻyicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar aʼzodan kam boʻlmagan holda tashkil etiladi.

Imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda eʼlon qilinadi.

Biologiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi taʼlim yoʻnalishlar boʻyicha imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini koʻrib chiqish boʻyicha appellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.